NAMANGAN VA ANDIJON VILOYATLARIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI (1991–2026)

Nurdinov Jamoliddin Dilshodbek o'g'li
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

Maqolada Namangan va Andijon viloyatlaridagi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati va ularning huquqiy asoslari manbalar yordamida tadqiq qilingan.
Kalit sozlar: O'zbekiston, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, evolyutsiya, jamoat fondlari.

В статье на основе анализа источников рассматривается деятельность неправительственных некоммерческих организаций в Наманганской и Андижанской областях, а также их правовая база.
Ключевые слова: Узбекистан, неправительственные некоммерческие организации, институты гражданского общества, эволюция, общественные фонды.

The article examines the activities of non-governmental non-profit organizations in Namangan and Andizhan regions and their legal framework using sources.
Keywords: Uzbekistan, non-governmental non-profit organizations, civil society institutions, evolution, public foundations.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) bu tizimda alohida o'rin tutadi, shu bois ularning huquqiy asoslari evolyutsiyasini o'rganish dolzarbdir. Tadqiqotda NNTlar huquqiy rivojlanishi shartli ravishda besh bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich (1991–1998) 1991-yil 15-fevraldagi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun bilan boshlandi va jamoat birlashmalari uchun huquqiy maydon yaratdi [1]. Rasmiy ma'lumotga ko'ra, o'sha davrda ro'yxatdan o'tgan NNTlar soni atigi 195 ta edi. Ikkinchi bosqichda (1999–2012) 1999-yildagi "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun NNTning mustaqil huquqiy maqomini belgiladi [2], 2003-yildagi qonun jamoat fondlarini, 2007-yildagi qonun esa faoliyat kafolatlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllarini tartibga soldi.

Uchinchi bosqichda (2013–2016) PQ-2085-son qaror va 2014-yildagi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonun davlat bilan hamkorlikning huquqiy asosini yaratdi [3]. To'rtinchi bosqichda (2017–2020) sohani liberallashtirish boshlandi: 2018-yilda jamoatchilik nazorati to'g'risida qonun qabul qilindi, 2020-yilda Prezident huzurida Jamoatchilik palatasi tashkil etildi. Beshinchi bosqichda (2021–2026) PF-6181-son Farmon va PQ-5012-son qaror ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirdi va ochiqlik mexanizmlarini joriy etdi, 2024-yildagi PF-124-son Farmon esa davlat ko'magini yagona jamoat fondi va elektron platforma orqali tashkil etishni belgiladi [4].

Adliya vazirligi ma'lumotlari bo'yicha 2016–2019-yillarda ro'yxatga olingan NNTlar soni 8 700 tadan 10 502 taga, ya'ni 20,7 foizga oshgan [5]. Biroq statistik qatorlarni solishtirishda hisoblash metodikasining o'zgargani inobatga olinishi kerak.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Sohadagi asosiy muammo normativ bazaning tarqoqligidir; tadqiqotchilar yagona kodeks qabul qilish zarurligini ta'kidlamoqda [4,13]. Natijalar NNT tarixini huquqiy maqomning o'zgarishi bilan birga ularning real faolligi ko'rsatkichlari orqali ham o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini hududiy kesimda o'rganish umumrespublika ma'lumotlarini aniqlashtirish imkonini beradi. Mazkur tezisda Namangan va Andijon viloyatlari bo'yicha mavjud rasmiy ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Namangan viloyati adliya boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2022-yil oktabr holatida viloyatda 543 ta NNT faoliyat yuritgan: 355 tasi davlat ro'yxatidan, 188 tasi hisob ro'yxatidan o'tgan; jamoat birlashmalari jami 445 tani (82,0 foiz) tashkil etgan [2, 16]. 2026-yil birinchi yarmi holatida esa NNTlar soni 643 taga yetgan, shundan 465 tasi davlat ro'yxatida, 178 tasi hisob ro'yxatida bo'lib, 540 tasi (84,0 foiz) jamoat birlashmalaridir [3, 6]. Shunday qilib, to'rt yilda NNTlar soni 18,4 foizga, davlat ro'yxatidagilari 31,0 foizga ko'paygan, hisob ro'yxatidagilari esa kamaygan.

2022-yilning dastlabki to'qqiz oyida adliya boshqarmasi 66 ta tashkilotda o'rganish o'tkazib, NNTlar tomonidan mehnat huquqi va ustav talablariga rioya qilmaslikning 1 990 ta holatini aniqlagan [2, 8]. Bu davlat qo'llab-quvvatlashi bilan birga nazorat tizimi ham saqlanganini ko'rsatadi. Andijon viloyatida 2023–2024-yillarda 11 ta loyiha Jamoat fondi tomonidan 1 milliard 185 million so'm bilan moliyalashtirilgan, keyingi tanlovda esa 10 ta loyiha 1 milliard 243 million so'm bilan qo'llab-quvvatlangan [13]. Bitta loyihaga o'rtacha mablag' 107,7 million so'mdan 124,3 million so'mgacha oshgan. 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmon bilan Fond va uning viloyatlardagi bo'linmalarini tashkil etish belgilandi [13].

Hududiy infratuzilma sifatida tashkil etilgan "NNT uylari"da Andijon viloyatida 22 ta, Farg'ona viloyatida 25 ta NNT joylashgani, shu bilan birga moliyalashtirish va xodimlar bilan ta'minlash muammolari mavjudligi qayd etilgan [5].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, vodiy viloyatlarida NNTlar soni ortib, tarkibida jamoat birlashmalari ustun bo'lib qolmoqda. Biroq 1991–2016-yillar uchun solishtiriladigan hududiy statistik qator mavjud emas va tashkilotlarning ro'yxatga olinganligi ularning faolligini bildirmaydi. Shu sababli kelgusida hisobotlar, loyihalar va grantlarda ishtirok kabi faollik ko'rsatkichlarini o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari bo'limi tomonidan 9 oylik faoliyat sarhisob qilindi. Namangan viloyat adliya boshqarmasi, 2022-yil 6-oktabr. URL: https://teletype.in/@nam_adliya/jKG0aVV_cRK (murojaat sanasi: 01.10.2026)
2. Namangan viloyati adliya boshqarmasi. "2026-yilning 6 oyida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot".
3. NNT va fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortmoqda // O'zbekiston milliy axborot agentligi (UzA). URL: https://uza.uz/posts/nnt-va-fuqarolik-jamiyati-institutlarining-roli-ortmoqda_757022 (murojaat sanasi: 01.10.2026)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmoni. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7083841 (murojaat sanasi: 01.10.2026)
5. NNT uylarini tashkil etish bo'yicha Prezident Farmonining joylardagi ijrosi yuzasidan jamoatchilik monitoringi o'tkazildi // "Yuksalish" umummilliy harakati. URL: https://yumh.uz/uz/news_detail/803 (murojaat sanasi: 01.10.2026)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.